



**XX ASR BOSHLARI SHE’RIYATIDA QOFIYA VA OHANGDORLIK**

*Sherzod Xo‘jamberdiyev,  
mustaqil tadqiqotchi*

**Annotatsiya** Ushbu maqolada qofiya va uning she'rda musiqiylik (ohangdorlik)ni yuzaga kelishidagi o'rni hamda vazifasi haqida so'z boradi. Shu jarayonda qofiyaning o'zi nima, uning qanday shakllari ishlatilib kelingan, qofiyaning elementlari, uning vazifaviy, kompozitsion hamda intonatsion jihatlariga e'tibor qaratilgan. Qofiya elementlari haqida ham ma'lumotlar berilib, unga tegishli qonun-qoidalar tegishli misollar asosida tahlil qilingan. XX asr avvali she'riyatidan olingan bu misollar qofiya nazariyasi va amaliyoti xususidagi mulohazalar bilan asoslangan.

**Kalit so'zlar** She'riyat, janrlar, qofiya, qofiya elementlari, to'liq qofiya, noto'liq qofiya, unlilar, undoshlar, raviy, tirkak tovush, vasl, noyira, mazid, xuruj, ridf, ta'sis, daxl.

XX asr boshlari she'riyatida qofiya mumtoz she'riyatdagi qofiyalardan ulgu olib, an'anaviy tarzda o'zining missiyasini bardavom qilgan esa-da, anchayin yangilangan she'riyatda bir qator o'zgarishlarga uchraganligini ham qayd etish adolatdan bo'ladi. Adabiyotshunos M.Tojiboyeva doktorlik dissertatsiyasida jadid shoirlari, jumladan, Hamza, Cho'lpon, Ibrat va boshqa shoirlar she'riyatida ta'b ahlining qofiya tanlash bobidagi mahoratlari, an'anaviy va tajdid qofiya tanlash usullari xususida so'z yuritar ekan, jadid shoirlarining aksariyati mumtoz qofiya an'analarni davom ettirganlari holda, o'zları ham qofiyalarning turli ko'rinishlarini istifoda qilganliklarini, ularning takmiliha hissa qo'shganliklarini tegishli misollar bilan ilmiy asoslangan. Zikr qilingan dissertatsiya qofiyaning vazifasi, o'rni, uni yuzaga keltiruvchi tovushlar, raviy va uning atrofidagi harflar, ular qo'llagan qofiya turlari, qofiyalardagi ayrim bir nuqsonlar jadid shoirlarining qofiyalari misolida dalillab berilgan. [5,164-178]

Aslini olganda, she'rni she'r qiladigan unsurlardan biri qofiya sanaladi. SHuning uchun mumtoz she'rshunoslikda qofiya san'atiga alohida e'tibor bilan qaraganlar, SHarq poetikasining bir o'zani sifatida ilmi qofiya paydo bo'lgan va bu yuzasidan she'rshunoslikda qator asarlar maydonga kelgan. Qofiya ilmi o'tmishda bitilgan ilmiy asarlardagina (Ibn Sino, Qays ar-Roziy, Vahid Tabriziy, Ahmad Toroziy) emas, balki XX asrda yozilgan adabiyotshunoslik lug'atlari, jumladan, S.Ayniy, I.Sulton, U.To'ychiyev, A.Hojjahmedov va boshqalarning risolalarida ham tadqiq qilindi, ularning spetsifikasiga doir mulohazalar o'rta ga tashlandi, qofiyaning takmili va tajdidi xususida mulohazalar bayon etildi.

Darhaqiqat, qofiyaning vazifasi, tuzilishi, uni yuzaga keltiruvchi unsurlar, turlari haqida ko‘p gapirilgan, qofiya xususida bitilgan barcha kitoblarda ta‘b ahli qofiyaning she’riyatda alohida mavqe tutishini hisobga olib, o‘zlarini “qofiyasinda aybg‘inasi bor” (Navoiy)ligidan saqlashga da‘vat etilgan. Zero qofiyaga faqat she’riyatning xos tomoni ohangdorlikni yuzaga keltiruvchi element sifatida emas, balki muayyan she’rdagi mazmunni shakllantiruvchi unsur, undagi fikrni musiqiylikka yo‘g‘rilgan holda taqdim etuvchi vosita sifatida qaraganlar. Bir so‘z bilan aytganda qofiyaga shoirning asosiy poetik niyati “yuklangan”. SHe’riyat umummazmunida qofiya go‘yo bir nishon vazifasini bajargan. Uning shakllanishi nishonga to‘g‘ri borib uning o‘nligiga, hech bo‘lmaganda, sakkizinch yoki to‘qqizinch doirasiga borib tekkkan-joylashgan. Undan quyi qofiyalar tan olinmagan, tanqiddan tuban hisoblanib, she’rning qusuri sifatida baholangan.

Qofiya bir so‘z doirasida yuzaga keladimi, birikma shaklida hosil bo‘ladimi, unda nishonga olib boruvchi mazmun bo‘lsa kifoya. Masalan, Hamza Hakimzodaning bir g‘azalida so‘zlar bilan bir qatorda izofaviy birliklar ham qofiya bo‘lib kelganligini kuzatish mumkin:

Xilvat aylab bir kecha, sho ‘xi zamonim, yakka kel,  
Yuz tuman pardoz etib, shohi jahonim yakka kel. [Hamza, I, 115]

G‘azalning keyingi baytlarida so‘z va izofaviy birliklar aralash holda qofiya vazifasini bajargan: shakkafishonim suyi makonim sohibqironim-sayyodi jonim bargi xazonim-gulsitonim-qonim - Nihonim.

Ikki og‘iz qofiyaning ta‘rifi haqida. Nazarimizda, qofiya poetik nutqning qon tomiri. Agar she’rda qofiya bo‘lmasa, shoirning poetik niyati ham yuzaga qalqib chiqmasligi mumkin. Avvalo qofiyaga she’rning umumg‘oyasini o‘quvchi shuuriga singdiradigan simptom sifatida qarash lozim. To‘g‘risi, qofiya she‘r mazmunini yuzaga chiqarib, uni musiqiylik bilan ta‘minlaydi. Uning o‘rni esa shu musiqiylikni jo‘rovoz sifatida namoyon bo‘lishiga olib keladi. "Qofiya fikrning qo‘sish qanotidir.

Qofiyasiz nutq jo‘n, oddiy bo‘lib qoladi. Qofiya g‘oyaviy mazmunning go‘zal, ta‘kidlash yo‘li bilan ifodalaniishi uchun dastyorlik qiladi va bu bilan estetik ahamiyatga ega bo‘ladi”. [3.69] Qofiya "asarning g‘oyaviy mazmuniga oid muhim va obrazli tushunchalarni ta‘kidlovchi, xushohanglikni ta‘minlash va muayyan vaznda takrorlanayotgan misralarni oxirini eslatish orqali she‘r ritmi va musiqiyligini tashkil etishda qatnashuvchi, yangi-yangi band, poetik janr va she‘r shakllarini yaratuvchi hamda eshitilishida bir-biriga ohangdosh bo‘lgan so‘zlar"dir. [4,106] U, To‘ychiyevning bu fikrlariga X. Sharafiddinov qarshi chiqadi va "...bu yerda qofiya ohangdosh so‘z deb qaralgan. Bu esa qofiya tabiatiga mos emas. Chunki ohangdosh so‘zlar, bu qofiyadosh so‘zlardir, qofiya emas; so‘zlardagi ohangdoshlik qofiyaga ko‘proq mos keladi ohangdoshlikning o‘zi qofiya, ohangdosh so‘zlar emas". [6,9] Biz ham ana shunday qarashlar tarafdarimiz. Negaki, qofiya deganda so‘zni tushunish ham, izofaviy birlikni ham, so‘z birikmasini ham tushunish mumkin. Gap bu o‘rinda so‘z-shakllarda emas, ularning she’rning

umummiy ritmida alohida ohangni yuzaga keltirganidadir. SHunga ko‘ra D.Quronov, Z.Mamajonov, M.SHeraliyevalarning lug‘atida qofiya "she‘riy misralar oxiridagi qo‘sishimcha, so‘z, ba‘zan so‘z birikmalarining ohangdosh bo‘lib kelishi, aniqrog‘i, ularning tarkibidagi tovushlar guruhining ohangdoshligi", deb ko‘rsatilishini yoqlash o‘rinli. [7,383] Ushbu qarash qofiyani so‘zlar emas, tovushlar, ularning bir-birining takrori yoki o‘xshash takroriga asoslangan guruhi yuzaga keltiradi, demish to‘xtamga olib keladi. Masalan, "ko‘zingiz so‘zingiz", "yuz qoralik makkoralik" yoki "safohat jaholar", "tor-u mor", "xor-u zor" [Hamza, II, 70, 94], "yurdi - urdf", "qop-qora bir qara", "falakni malakni" [Hamza, 1,25], "quchog‘inda po‘chog‘inda o‘chog‘inda bu chog‘inda" [9,103]. Kursivga olingan qismlarga e‘tibor berilsa, bir xil yoki talaffuzi bir-biriga yaqin tovushlarning takrori bilan ularning miqdori orasida ham yaqinlik qofiyani yuzaga keltirayotgani, qolaversa, shu ohangdoshlik, ko‘tarinkilik zamirida yozuvchining poetik niyati va she‘rning pafosiga tegishli jihatlar uyg‘unlashayotganligini sezish qiyin emas. Tanlangan qofiyalar har uchala shoirning XX asr avvalidagi qarashlarining bir oyinasi sifatida ko‘zga tashlanyapti. Bu esa qofiyaning she‘rda muhim o‘rin tutishini ko‘rsatib beradi. Endi qofiyaning o‘rniga keladigan bo‘lsak, iqtibosga olingan qofiyalar asosan misralar oxiriga tegishli. Bugungi qofiyashunoslik qofiyaga erkin qaragan holda, ularning o‘rnini misra boshi, o‘rtasi va oxirida bo‘lishini inkor etishdan o‘zini tiyadi.

Zero mumtoz qofiyaning misralarning har uchala o‘rnida ham bo‘lishi mumkinligi ko‘p kuzatilgan. CHunonchi, Navoiyda bunga misollar anchagina:

Yo‘ldasa bu yo‘lda Nizomiy yo ‘lim,  
Qo‘ldasa Xusrav bila Jomiy qo ‘lim. [8, 46]

Magarki, qofiyaning bu tariqa uch o‘rinli bo‘lishining navoiyona namunasi bor ekan, qofiya misraning oxirida bo‘ladi, degan qarashlar tahrirga muhtoj ekanligini e‘tirof etishga to‘g‘ri keladi. Bu jihatdan X.SHarafiddinovning iqtiboslar yig‘indisi va uning bu yuzasidan to‘xtamlari e‘tiborga loyiq. [6, 11-17] XX asr boshlari she‘riyatida, xususan, Hamza Hakimzodanining devoniga kirgan mumtoz janrlarga tegishli she‘rlarda, milliy she‘rlarida bunga ko‘plab misollarni keltirish mumkin. Bu davr she‘riyatida misra boshida kelgan qofiyalarni ham, misralar o‘rtasida kelgan qofiyalarga ham duch kelish mumkin:

Toy olguncha ot olgin, Turkiston,  
Boy o‘lguncha tot olgin, Turkiston. [Hamza, II, 34]

Hatto musajjamonand qofiyalar ham uchraydi. Musajja‘viy qofiyalanish mumtoz she‘riyatda ko‘p bo‘lgani singari zikri borayotgan asrda ham ko‘rinish berib turgan:

Gar bo'lsa toj-u baxting, yetsa falakka taxting, Buzg'ay tamomi raxting, bermas senga omon bu.

Kor etmagay davolar, bing ohu bing navolar,  
Bir kun bag'ring yarolar, sayyodi bekamon bu. (Hamza, II, 161)

Yoki:

Sobit bo'lib so'zlarga, ibrat olub ko'zlarga,  
Ta'na kelmay yuzlarga, bo'lsak millat qurboni. [Hamza, II, 50]

Oldindan bir xulosani aytish mumkinki, qofiya mumtoz she'riyatda bo'lgani kabi XX asr she'riyatida, jumladan, asr boshi she'riyatida ham she'r mazmuni, kompozitsiyasi, intonatsiyasi bilan bog'liq holda yuzaga kelgan. Xususan, intonatsiya bilan bog'liq tomonini sharhlaganda bir holatni nazardan qochirib bo'lmaydi. Mumtoz she'rshunoslikda faqat to'q qofiyalar tan olingan. Och qofiyalar esa qusur sifatida baholanganini yuqorida aytib o'tdik. Yangirgan she'riyatda och qofiyalar ham alohida turkum sifatida XX asr she'riyatining tan olingan ko'rinishiga aylanib qoldi. Bularga ko'ra qofiyaning turli shakllarini sanab o'tish mumkin bo'ladi. Bular: a) qofiyadosh so'zlarda boshlovchi tovushlardan boshqa hamma tovushlarning mos kelishi: bog'iga dog'iga sog'iga zog'iga [Hamza, II, 10]; b) nutq tovushlarining eshitilishidagi yaqinligi asosida yuzaga kelgan qofiyalar: ittihod - ittifoq [Hamza, II, 13]; d) qofiyadosh so'zlarning birida biror tovushning tushib qolishi yoxud ortishi hisobiga: ko'yida o'yida [Hamza, II, 27]; ye) eshitilishi jihatidan bir-biridan uzoq bo'lgan tovushlar hosil qilgan qofiyalar: ayyomingiz qurboningiz shamshodingiz tumorining pardozingiz mehmoningiz chakmoningiz ko'yloggingiz va h. [Hamza, I, 109] singari qofiyalarni zikr etilayotgan davr she'rlarida uchratish mumkin.

SHe'rshunoslikda qofiyani yuzaga keltiruvchi tovushning (undosh hamda unli tovushlarni; a, i, u qisqa unlilari bundan mustasno. Ammo ba'zi she'rshunoslар qisqa unlilarni ham qo'shadilar. Bu haqida qarang: U.To'ychiyev. "O'zbek adabiyotida badiiylik: mezonlari va ularning marommlari". 73-bet.) vertikal tarzda parallel kelishidan qofiya yuzaga keladi. Bunda bir xil undosh yoki bir xil unli ifodada va eshitilishida alohida bo'rtib turadi. Ushbu ikki bir xil tovush raviy yoki tirgak tovush atalib, qofiyaning poydevori sifatida namoyon bo'ladi. Qofiyadagi raviy qofiya vazifasini bajargan so'zning asosi (o'zagi) oxiridagi tovush ekan, muqayyad qofiyada, ya'ni o'zaklar qofiyadosh bo'lgan so'zlarda aniq bilinib turadi. Mutlaq qofiyalarda (so'z asosi oxiriga affiksla (qo'shimchalar) qo'shilgan qofiyalar nazarda tutilyapti) esa buni qo'shimchalardan ajratgan holda qarashga to'g'ri keladi: davron hayvon shayton yolg'on [Hamza, II, 181] qofiyadosh so'zlarida "n" undosh tovushi raviy, bog'lar chog'lar dog'lar [Hamza, 181] qofiyadosh so'zlarida esa "g" undoshi raviy bo'lib kelayotir. Vahid Tabriziy so'zlari bilan aytganda, raviy bitta harfdir... "va she'r raviy harfisiz to'g'ri bo'lmaydi. Bu harfni shunday takrorlash kerakki, u har bir baytda muayyan o'ringa qo'yilgan bo'lsin. Raviy qilingan

harf so‘zning o‘ziga tegishli bo‘ladi, agar bu harf so‘zdan olib tashlansa, so‘z o‘z ma’nosini yo‘qotadi”. [1,77-78]

Raviy, magarki, qofiyaning o‘zakdagи unsurlari ekan, u bilan birga keladigan qayd, ridf, ta’sis, dahil, tavjih va hazvlar ham raviy qatorida o‘zakda joylashadi. To‘g‘ri, ular bir vaqtida o‘zakda ketma-ket joylasha olmasligi mumkin. Biroq zarur o‘rinlarda mutlaq ishtirok etuvchi raviyning unsurlari sifatida kelishi mumkin. Bu holatni XX asr tongidagi she‘riyatda ko‘plab uchratish mumkin. Masalan, “o”dan boshqa unlilardan biri bilan yasalgan yopiq bo‘g‘inda raviydan oldin kelgan undosh tovush “qayd” hisoblanib, bunda qator kelgan undoshning oldingisi nazarda tutiladi: daraxt - karaxt, mast alast, qand - pand [Hamza, II, 99]. Ridfdha esa raviysi undosh bo‘lgan so‘zda undan oldin unli keladi va shu unli huddi raviyga o‘xshab intonatsiya bilan aytildi: arqon - Yazdon; imkon inson davron [Hamza, II, 83-84]:

Yo, olloh, bu vatanning dushmaniga ber zavol,  
SHavkatida biz yuraylik al-omon-u beialol,  
Qolsun tubsiz bo‘lub, yo Rab, bu ish misli xayol,  
Barchasmiz yo‘rdam qilaylik boricha qurbi majol,  
Yo‘qsa qolmas amnu rohat tama’ kam-kam pirahan. [Hamza, II, 84]

Ta’sisda ham “o” unlisi assonansga o‘xshash yorqin intonatsiyani hosil qiladi. CHunki ta’sis mos keluvchi tovushlardan tuzilgan yopiq bo‘g‘inlardan oldin kelgan “o” tovushidir. Uning talaffuzida bir ko‘tarinkilik zohir bo‘lib turadi ham shoirning poetik fikrini anchayin baland darajada shuurga singishiga ko‘mak beradi:

Vahshat bizdan yo‘qolsun, millat taraqqiy olsun,  
Bizdan yodgorlik qolsun, bo‘lsak millat qurban. [Hamza, II, 50]

Keltirilgan baytda daxil borligini ham unutmaslik lozimki, ta’sis bor o‘rinda daxil ham bo‘ladi. CHunki daxil ta’sisdan so‘ng keluvchi undoshning ham intonatsiyaga daxli bor:

Eshonlar yig‘ishib tun-u kun oltun,  
Yil oralamay olur bir xotun... [Hamza, II, 34]

Qayddan oldin keluvchi a, i, u, e unlilaridan hazy yuzaga keladi, bu qofiyada (masalan, harf-sarf, do‘s -po‘st, spehr mehr kabi) intonatsiya ana shu unliga bog‘liq bo‘lib qoladi. Tavjih esa raviy bo‘lib kelgan undoshdan oldingi “a”unlisi tavjihdir:

Sochingmu yoki mushki anbar,  
Qoshingmu kamon, misolmu hanjar,  
Gar parda ko‘tarsang, ey sumanbar,

Ko'rgan kishi lol bo'lur, qalandar,  
Qilgay bu yuzingga jon tasadduq. [Hamza, I, 260]

Qo'shimchali, ya'ni mutlaq qofiyalarda ham harflar o'ziga xo's tarzda o'rinalashadi va bu o'rinalashish she'r misralaridagi intonatsiyani kuchaytirishga hamda qofiya turlarini hosil qilishga olib keladi. Masalan, raviydan keyin kelib unga vositali yoki vositasiz bog'lanadigan va vasl atalmish tovushli qofiyalar davr she'riyatida aytilganlarining barchasidan ko'p uchraydi:

Tun-kun g'amida fikru xayolim,  
So'rmaydi bir yo'l dilxasta holim,  
Nadur gunohim, yo'qmu uvolim... [Hamza, I, 245]

Yoki:

To Mag'ribdin kezsa sharqu shimoli,  
Vahkim topilmasdur hargiz amsoli,  
Jannat ichra yo'qdur o'xshash visoli.... [Hamza, I, 223]

Vasldan keyin keluvchi xurujda ham ana shunday holatni, ya'ni ohangdorlikning ko'tarilish jarayonini kuzatish mumkin:

Necha yo'l arz ayladim rozi dilim jononima,  
Rahm qil, deb, man g'aribga ul mohi tobonima.  
Zulmi xo'bi rahm ekan, ul nomusulmon mug'bacha,  
Bir quloq solmas hanuz ming dod-u afg'onima. [Hamza, I, 171]

Yuqorida keltirilgan qo'shimchali qo'fiya turlari bilan bir qatorda asosiy ridfli va vaslli qo'shimchali qofiyalar, ta'sisli hamda vaslli qo'shimchali qofiyalar, hurujli qo'shimchali qofiyalar, qaydli ham xurujli qofiyalar, mazidli qo'shimchali qofiyalar va, umuman, qofiya ilmida asoslangan [2,19] 25 turining ko'p qismi XX asr avvali she'riyatida istifoda etilganligini kuzatish mumkin. Ayrimlari esa mumtoz she'riyatda bo'lgani holda, XX asr she'riyatida uchramaydi. Ushbu misollar fikrimizni dalillashga asos bo'ladi: ochmog'ingizga qochmog'ingizga [Hamza, I, 57], tutilmog'im qutulmog'im [Hamza, I, 58], jonim gumonim - mehribonim zabonim-bo'stonim - zabonim - nuktadonim - dostonim [Hamza, I, 60], iztirobim azobim tobim hisobim hobim - savobim - javobim - holi xarobim [Hamza, I, 66], urmaguncha yurmaguncha so'rmaguncha ko'rmaguncha [Hamza, I, 174] va h.

XX asr o'zbek poeziyasida qofiyalarning to'liq va noto'liq, xatto taxminiy (U.To'ychiyev) qofiya turlari ham uchraydi. Qofiyaning xillarga ajratishda unli tovushlarning mos kelishi yoki undoshlarning mos kelishidangina iborat qofiyalar borligini ham unutmaslik lozim.

SHuningdek ovozdoshlik asosiga qurilgan qofiyalar ham o‘zbek she’riyatida ko‘p uchrashini e’tirof etish kerak. Agar yuqorida aytilgan qonun-qoidalar jamlansa, qofiya bilan bog’liq tavsiflarning salmog‘i juda katta ekanligi, bu masalalar bir maqola yo risolada tahlil etish va ko’rsatib berish ancha mushkul. Bulardan tashqari, qofiyalarning she’riyatning g’azal, masnaviy, murabba’, muxammas, musaddas, musamman, muashshar, tarje’band, tarkibband, ruboiy, tuyuq, qit’a singari janrlarning spetsifikasini dalillashdagi o’rni ham mavjudligi, tajnisli qofiyalar tuyuq, masnaviy, g’azal va boshqa janrlarda ishlatalishi, oq she’rda qofiya bo’lmasligi, erkin she’rlarda qofiyamonand birliklarning istifoda etilishi, saj’ usulining nasrda xushohanglikni yuzaga keltirishdagi vazifalari e’tiborda tutilsa, qofiyaning ahamiyati yanada ortadi. Xulosa shuki, qofiya qanday tuzilishga ega bo’lmasin, she’riy matnning qaysi o’rnida ishtirok etmasin, o’zining vazifaviy, kompozitsion (ayniqsa aruziy she’riyatda) va intonatsion vazifasini bajaradi, shoir mahoratini belgilovchi bir unsur sifatida namoyon bo’lib, o’quvchiga mislsiz zavq beradi, tinglaguvchining ruhiyatiga huzur baxsh etadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Вахид Табризи. Джамъи муҳтасар. Трактат о поэтике, критический текст, перевод и примечания А.Е.Бертельса. М.: Наука, 1959.
2. Сирус Б.И. Рифма в таджикской поэзии. Сталинобод, 1953.
3. Тўйчийев У. Ўзбек адабиётида бадиийлик: мезонлари ва уларнинг маромлари. - Т.: Янги аср авлоди, 2011.
4. Тўйчийев У. Ўзбек совет поэзиясида бармоқ системаси. Т.: Фан, 1966.
5. Тожибойева М.Жадид адиблари ижодида мумтоз адабиёт анъаналари. // филология фанлари доктори диссертацияси. Т.: 2017.
6. Шарафиддинов Х. Ўзбек поэзиясида кофия. Фаргона. 2021.
7. Куронов Д., Мамажонов З., Шералийева М. Адабиётшунослик луғати. Т.: Академнашр, 2010.
8. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик. 6-жилд. Ҳайрат ул-абор. Фарход ва Ширин. Т.: Faafur Fulom nomidagi NMIU, 2011.
9. Авлоний Абдулла. Танланган асарлар. 2 жилдлик. 1-жилд. Шеърлар, Ибратлар. Т.: Маънавия, 2016.
10. Ҳамза Ҳакимзода. Тўла асарлар тўплами. Беш томлик, биринчи том. - Т.: Фан, 1988.
11. Ҳамза Ҳакимзода. Тўла асарлар тўплами. Беш томлик, Иккинчи том. Т.: Фан, 1988.
12. Cho’lpon Abdulhamid. She’rlar, hikoyalar, she’riy va nasriy tarjimalar. - Т.: Zabarjad mediya, 2022.